



Tadqiqot uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



№17
30 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
19-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
17-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-19**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
17-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-19**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 17-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тугган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФАРМАЦЕВТИКА

1. Юлдашев Соатбой Жиянбоевич, Жиянбоев Нодирбек Соатбоевич ИЗУЧЕНИЕ ТОКСИЧНОСТИ НОВОГО ПРОИЗВОДНОГО ФЕНИЛГЛИОКСИЛОВОЙ КИСЛОТЫ.....	7
2. Maxmudov Zafar Mardanovich RETSEPT YOZISHDA DUCH KELINAYOTGAN AYRIM MUAMMOLARNING QONUNIY YECHIMI VA AMALDA QO‘LLASH HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	9



ФАРМАЦЕВТИКА

ИЗУЧЕНИЕ ТОКСИЧНОСТИ НОВОГО ПРОИЗВОДНОГО ФЕНИЛГЛИОКСИЛОВОЙ КИСЛОТЫ

*Юлдашев Соатбой Жиянбоевич,
Жиянбоев Нодирбек Соатбоевич*
*к.м.н., доцент, зав. кафедрой фармакологии и клинической фармакологии
Самаркандского Государственного медицинского института
Студент лечебного факультета турецкой медицины
Бухарского Государственного медицинского института
farma.km@mail.ru +99891-532-33-83*

Аннотация: Изучение фармакологических свойств новых соединений, полученных на основе фенилглиоксиловой кислоты, показало выраженную противовоспалительную активность. В связи с чем, наиболее активное из них - тиосемикарбазон паранитрофенилглиоксиловой кислоты подвергся углубленному исследованию токсичности

Ключевые слова: тиосемикарбазон паранитрофенилглиоксиловой кислоты, токсичность, противовоспалительное средство.

Актуальность. Как известно, современная клиническая практика располагает значительным количеством противовоспалительных средств, которые широко используются для лечения многих заболеваний и патологических процессов, связанных с воспалением. Однако большинство из применяемых в практике для этой цели лекарственных средств не отвечают требованиям врачей из-за часто развивающихся побочных реакций и тяжелых осложнений. В связи с этим поиск и изучение новых высокоэффективных и малотоксичных противовоспалительных препаратов по сей день является актуальной проблемой.

Цель исследования: изучить токсичность тиосемикарбазона паранитрофенилглиоксиловой кислоты, полученного в УзНИХФИ на основе фенилглиоксиловой кислоты

Материалы и методы исследования. Исследования проводили в соответствии с «Методическими рекомендациями по экспериментальному изучению нестероидных противовоспалительных веществ» (Тринус Р.И. и др., 1983), «Инструкцией по доклиническому испытанию безопасности фармакологических средств» Фармакологического комитета МЗ РУз (2000).

Результаты. В проведенных нами исследованиях было отмечено, что тиосемикарбазон паранитрофенилглиоксиловой кислоты обладает высокой противовоспалительной активностью и в этом отношении он значительно сильнее бутадiona и примерно соответствует вольтарену [2]. Учитывая ульцирогенное действие многих противовоспалительных средств, было изучено влияние нового препарата на течение экспериментальных язв желудка. По полученным результатам, при пероральном введении тиосемикарбазона паранитрофенилглиоксиловой кислоты в дозе 200 мг/кг ежедневно в течении 1 месяца не выявлено негативного влияния на целостность слизистой оболочки желудочно-кишечного тракта у крыс. Более того, в опытах на крысах было показано, что по сравнению с контрольной группой (100%) у препарата отчетливая противоязвенная активность. Профилактическое введение препарата способствовало уменьшению степени изъязвления слизистой оболочки желудка до 24,7% и площади изъязвления до 27,5%. Если учитывать, что образование язв в желудке связано с воспалением, характерное для альтеративных процессов, то можно сделать вывод, что препарат проявляет антиальтеративный эффект. Изучая токсичность



тиосемикарбазона паранитрофенилглиоксиловой кислоты при длительном его введении ежедневно в течении 6 месяцев животным было выявлено, что препарат не оказывает отрицательного влияния на морфологию тканей мозга, внутренних органов и на картину периферической крови, что можно сказать является его достоинством перед многими другими противовоспалительными средствами. Острую токсичность препарата изучали на мышцах при однократном введении различных доз, наблюдая в течении 24 часов. Его средняя смертельная доза составляет 2123 мг/кг. Согласно литературным данным [1], при пероральном применении у мышей ЛД 50 равна для бутадiona 430 мг/кг, для вольтарена 370 мг/кг. Сопоставление этих величин показывает, что новое производное фенилглиоксиловой кислоты в 4,9 и 5,7 менее токсично, чем бутадion и вольтарен соответственно.

Выводы. Таким образом, на основании полученных результатов можно считать, что новое производное фенилглиоксиловой кислоты обладает значительно меньшей токсичностью, чем бутадion и вольтарен и в качестве нового противовоспалительного препарата представляет практический интерес.

Список литературы

1. Сигидин А.П., Шварц Г.Я., Арзамасцев А.П., Либерман С.С. Патогенетическое лечение воспалительного процесса. - Москва: Медицина. – 1988. - 240с.
2. Юлдашев С.Ж., Закиров Ё.У. Фенилглиоксил кислотаси янги унумининг фармакологик хусусиятларини ўрганиш // O'zbekiston farmatsevtik xabarnomasi.-2005. - №4. – Б. 36-40.



RETSEPT YOZISHDA DUCH KELINAYOTGAN AYRIM MUAMMOLARNING QONUNIY YECHIMI VA AMALDA QO'LLASH HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Maxmudov Zafar Mardanovich
Samarqand Davlat Tibbiyot instituti o'qituvchisi
Telefon: (94) 4774510
e-mail: maxmudovzafar4510@gmail.com

Аннотация. В этой статье идёт речь о процессе закона, который создан нашей страной в сфере правописания рецепта и обсуждаются о неправильных поступках некоторых врачей. Автор сделал вывод по этой теме.

Ключевые слова: закон, статья, указ, приказ, рецепт, рецептура, лекарство, лекарственное вещество, лекарственное средство, преподаватель, студент, согласие, врач, пациент.

O'zbekiston qonun ustivor bo'lgan inson huquqlari har tomonlama himoyalangan davlat. Bunga hechqanday shubha bo'lishi mumkin ham emas. Mamlakatimizda inson salomatligini saqlash hamda jamiyatda turli kasalliklarning oldini olish va davolash borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu ishlarning qonuniy asoslari ham yaratilgan. Qonuniy asoslarni yaratish va unga amal qilish borasidagi amaliy ishlar O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlangan va bu borada tinimsiz, mukammal, tizimli ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini kafolatlaydi hamda davlatga aholi salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog'liqni saqlashning davlat va xususiy tizimlarini rivojlantirish dasturlarini moliyaviy ta'minlash, inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatni rag'batlantirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, shuningdek ekologik va sanitariya-epidemiologik vaziyatni yaxshilash majburiyatlarini yuklaydi1.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan qoidalarni aniqlashtiradi va rivojlantiradi, fuqarolar sog'liqni saqlash prinsiplarini, bu boradagi qonunchilik vazifalarini, O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tashkil qilishni, tibbiy ijtimoiy yordam kafolatlarini, alohida aholi guruhlarning sog'liqni saqlash borasidagi huquqlarini belgilaydi2.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni bemorning davolash muassasasi haqida (joylashgan manzili, ish tartibi haqida), muassasa ko'rsatadigan xizmatlar (pullik tibbiy xizmatlar ro'yxati, ularning narxi, xizmat ko'rsatish shartlari, alohida toifa fuqarolar uchun imtiyozlar, DPM javobgarligi), dori vositalari (xossalari, sifati, retsept va/yoki retseptsiz dori vositalari berish, narxi, kafolatlari) haqida axborotni, shuningdek tibbiy yordam ko'rsatayotgan mutaxassislarning sertifikatlari va malakasi haqidagi ma'lumotlarni olish huquqini kafolatlaydi3.

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni asosiy turdagi dori vositalaridan foydalanish va ularning sifati bo'yicha davlat kafolatlarini belgilaydi, O'zbekiston Respublikasi hududida ruxsat berilmagan dori vositalari va tibbiy maqsadda qo'llaniladigan buyumlarni qo'llashni ta'qiqlaydi4.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlari aylanmasi sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, ularning noqonuniy aylanmasiga qarshilik qilishga, fuqarolar salomatligini muhofaza qilishga va davlat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 6 avgustdagi 404-sonli Qarorining 1-ILOVAsiga muvofiq Respublika dorixona muassasalarida dori-vositalari va tibbiy buyumlarini sotish qoidalari belgilangan5.

Ushbu Qarorga binoan O'zbekiston Respublikasida dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish bilan shug'ullanishga farmatsevtika faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan dorixona muassasalariga ruxsat etiladi. Qayd etib o'tilgan dorixona muassasalarida dori



vositalari sotishga faqat maxsus farmatsevtik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga ruxsat beriladi va dorixona muassasalari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan dori vositalari va tibbiy buyumlarining sifatini tasdiqlovchi hujjatlarsiz dori vositalari va tibbiy buyumlarini qabul qilib olish ta'qiqlangan.

Dori vositalari aholiga shifokorning retsepti va retseptisiz berish, shuningdek, davolash-profilaktika muassasalariga beriladigan dori vositalar ro'yxati va ularni berish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Shu o'rinda haqli savol tug'uladi. Retsept nima? Retsept –shifokorning dorixona xodimiga dorini qabul qilish usullari ko'rsatilgan holda tayyorlash va sotish to'g'risida yozma ko'rsatmasidir. Retsept Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan 107 h va 108 h shakldagi hujjatdir. Retseptning ma'lum qismlari: dori nomi va miqdori, dorixona xodimiga dorini tayyorlash va berish to'g'risida ko'rsatma hamda bemorga dorini qabul qilish to'g'risida ko'rsatmaning boshlanishi lotin tilida yozilishi kerak7.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2010 yil 18 iyundagi 191-son buyrug'i bilan tasdiqlangan retsept blankasi (varaqasi)ga yoziladi, lekin, yozish va rasmiylashtirish talablari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2001 yil 28 noyabrdagi 527-son buyrug'i talablari asosida belgilangan.

Barcha dorixona muassasalari qaysi idoraga qarashliligi va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar belgilangan talablariga amal qilishlari shart.

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan vrachning retseptisiz berishga ruxsat etilgan dori vositalaridan tashqari barcha dori vositalar dorixonalaridan faqat me'yoriy hujjatlarda belgilangan shakllardagi retseptlarga ko'ra beriladi.

Davolash-profilaktika muassasalari shifokorlariga kasalxonada dori vositalar bo'lmaganda statsionar davolanishda bo'lgan bemorlarga retsept yozib berishga ruxsat etiladi. Bunda dori naqd pulga sotib olinganligi haqidagi ma'lumot kasallik tarixiga yozib qo'yilishi shart.

Agar retseptda zaharli, narkotik va boshqa ingredientlar qo'shilmasidagi kuchli ta'sir qiluvchi vositalar yozib berilgan bo'lsa, ularni tayyorlangan dori tarkibiga kiritmay alohida berish taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarori asosida shifokor tomonidan zaharli yoki kuchli ta'sir etuvchi moddani bir marta qabul qilishdan ortiqcha dozada, bu retseptda tegishli ravishda rasmiylashtirilmay yozilgan bo'lsa, dorixona xodimi dorini bir martalik qabul qilish uchun belgilangan dozaning yarmi miqdorida berishga majbur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 20 maydagi 131-son Qaroriga binoan pushti rangdagi maxsus retsept blankalarida yozib berilgan giyohvandlik dori-darmon vositalari hududiy davolash-profilaktika muassasalariga faqat shu maqsadlar uchun birlashtirib qo'yilgan dorixonalaridan beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarori asosida davlat nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalari shahar (shahar, viloyat yoki tuman) doirasida faoliyatning tegishli turiga ruxsatnomasi bo'lgan dorixonalar tomonidan ularning hududidagi davolash- profilaktika muassasalari retseptlari bo'yicha beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarori asosida tarkibida giyohvand moddalar bo'lgan dorilar uchun berilgan retseptlar - yozib berilgan kundan boshlab 7 kun mobaynida, zaharli moddalar bo'lgan dorilar bo'yicha - 10 kun, barcha qolganlari bo'yicha esa - bir oy mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

Shifokor retseptlari bo'yicha dorixonalaridan dori vositalarini berish normasi davolashning bir kursi uchun belgilanadi.

Favqulodda hollarda (bemorning shahardan jo'nab ketishi, dorixonaga muntazam qatnashining iloji yo'qligi va boshqalar) dorixona xodimlariga shifokor tomonidan tayinlangan dori-darmonni uzoq muddat amalda bo'ladigan retseptlar bo'yicha ikki oy davomida davolanish uchun zarur bo'lgan miqdorda bir yo'la berishga ruxsat etiladi.



Tibbiy etil spirti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarorida quyidagilar belgilangan:

-ambulatoriyaga qatnab davolanadigan uzoq davom etadigan kasalga chalingan bemorlarga shifokorning "Maxsus ko'rsatma bo'yicha" deb yozib qo'yilgan, imzolangan va davolash-profilaktika muassasasining muhri qo'yilgan retseptlari bo'yicha, sof holda - 100 grammgacha hamda "Kompres qilish uchun" deb yozib qo'yilgan (aralastirishi miqdori ko'rsatilgan holda) yoki "Terini ishqalash uchun" deb yozib qo'yilgan retseptlar bo'yicha, ingredientlar aralashmasida -100 grammgacha;

-tibbiyot maqsadlari uchun tibbiyot muassasalari va tashkilotlariga - Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan normativlar bo'yicha beriladi.

Tarkibida zaharli, giyohvandlik moddalar va etil spirti bo'lgan ekstemporal usulida tayyorlangan dorilarni berishda bemorlarga retsept o'rniga yuqori qismida sariq yo'li va unda qora shriftida "Signatura" degan yozuv bo'lgan signatura beriladi. Tayyor dori-vositalarni berishda zarur bo'lgan hollarda dori-darmonni qo'llash usuli ko'rsatilgan yorliq ilova qilinadi.

Uzoq vaqt amalda bo'ladigan retsept bo'yicha dori-vositalarni berishda retsept bemorga qaytarib beriladi, bunda uning orqa tomoniga berilgan preparatning soni va berilgan sana yozib qo'yiladi. Bemor dorixonaga navbatdagi kelganda oldingi olingan dori-vositalar haqidagi belgilar hisobga olinadi. Retseptning amalda bo'lish muddati tugagach "Retsept haqiqiy emas" degan tamg'a bosiladi va dorixonada qoldiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 20 maydagi 131-son Qarori asosida imtiyozli shartlarda yoki bepul berilgan dori-vositalarning retseptlari dorixonalarda uch yil davomida, maxsus pushti rangdagi blanklar bo'yicha berilgan dorilar retseptlari - 5 yil, tarkibida zaharli moddalar, etil spirti bo'lgan dorilarga berilgan retseptlar, miyani aynitib qo'yish quvvatiga ega bo'lgan preparatlar va anabolik vositalarga berilgan retseptlar bir yil davomida, boshqa dorilarga berilgan retseptlar - bir oy davomida saqlanishi belgilangan.

Retseptlar saqlash muddati tugagach yo'q qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarori bo'yicha dorixona muassasalari va ularning xodimlari barcha holatlarning (retsept asosida va retseptsiz dori vositalarini berish) Qoidalar talablarini buzganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortilish belgilangan.

Shu bilan birga, Respublika hududida, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, barcha dorixona muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyundagi 276-son Qarori bilan Qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga yuklanadi.

Aytish joyizki, 2020 yil may oyida Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasi muhokama uchun e'lon qilindi. Qonun loyihasida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning "59-2-modda. Retseptlar yozish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzish" moddasi, Jinoyat kodeksida "228-2-modda. Retseptlar yozish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan talablarni buzish" moddasi bilan to'ldirish ko'zda tutilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan hujjatlar maqola boshlanishida aytib o'tgan fikrimiz tasdig'idir. Lekin, retsept mavzusida dars o'tish jarayonida talabalarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqdamiz. Hozirgi kunda amalda retsept varaqalarini kam uchratmoqdamiz va mavjud retseptlarda ham dori nomi, miqdori va dorixona xodimiga ko'rsatmalar lotin tilida yozilmayapti. Shunday ekan, lotin tili va tibbiyot terminologiyasi fani o'qituvchilarining retsept mavzusida tushuntirishlari talabalarda shubha va ikkilanishlarga, yuqoridagi kabi e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Hulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, tibbiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi shifokorlarimizning retsept yozish qoidalariga to'liq amal qilmasliklari birinchidan, shifokorlarning qonun hujjatlariga rioya qilmasliklarini, ikkinchidan shifokorlik deontologiyasi talablari buzilishini, uchunchidan, shifokor dori nomi qanday to'g'ri yozilishini bilmasligini ko'rsatib qo'ymayaptimikin?! Sanasak, sabablar ko'p. lekin, bizga yechim muhimroq. Bu maqola orqali kimnidir ayblash maqsadimiz yo'q. Asosiy maqsadimiz O'zbekistonda qabul qilinayotgan



sohaga oid qonun hujjatlarining soʻzsiz bajarilishini talabalarga koʻrsatish orqali yosh avlodda qonunni hurmat qilish va soʻzsiz amal qilish koʻnikmasini shakllantirish. Qolaversa, kitobdagi bilimlar bilan hayotiy haqiqatlar mos kelishini koʻrsatib oʻtishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. Oʻzbekiston Respublikasining "Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida"gi Qonuni;
3. Oʻzbekiston Respublikasining "Isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish toʻgʻrisida"gi Qonuni;
4. Oʻzbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati toʻgʻrisida"gi Qonuni;
5. Oʻzbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 6 avgustdagi 404-son "Respublikada dori-vositalar va tibbiy buyumlar bilan taʼminlashni va ularni taqsimlashni yaxshilashga doir kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi qarori;
6. Oʻzbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 14 yanvardagi 18-son "Oʻzbekiston Respublikasining Sogʻliqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish toʻgʻrisida"gi qarori;
7. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 18 iyuldagi 276-son Qarori
8. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2010 yil 18 iyundagi 191-son "Davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalarini tayinlash hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qoʻllash tartibi, shuningdek, dorixona muassasalar tomonidan aholiga dori vositalarini retsept asosida berish toʻgʻrisida" gi buyrugʻi.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ

(19-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиёв Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиёв Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиёв

Эълон қилиш муддати: 30.06.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000